

ISHLAB CHIQARISH SANOATI SOHASINI RIVOJLANISHDA INVESTITSION RESURLARNING AHAMIYATI

To'xtamurotov Axmadali Muhammadali o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi va menejmenti kafedrası assistenti

axmadalitoxtamurotov@gmail.com

+99891 288 61 92

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15244439>

Kalit so'zlar: sanoat korxona, globalashuv, investitsiya, ishlab chiqarish, raqamli iqtisodiyot, eksport, import, iqtisodiy rivojlanish.

Annatatsiya: Mamalakatning iqtisodiy rivojlanishida ishlab chiqarish sanoatining ahamiyati yuqori. Ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi hududagi aholini doimiy ish bilan ta'minlaydi. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalari investitsiya jalb etish orqali o'zlarida mavjud texnologiyalarni modernizatsiya qilish va bu orqali ishlab chiqarish samaradorligini yanada yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

THE IMPORTANCE OF INVESTMENT RESOURCES IN THE DEVELOPMENT OF THE MANUFACTURING INDUSTRY

Keywords: industrial enterprise, globalization, investment, production, digital economy, export, import, economic development.

Abstract: The importance of the manufacturing industry in the economic development of the country is high. The development of the manufacturing industry provides permanent employment for the population of the region. In addition, by attracting investment, manufacturing enterprises will have the opportunity to modernize their existing technologies and thereby further improve production efficiency.

ЗНАЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ОБРАБАТЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ


Ключевые слова: промышленное предприятие, глобализация, инвестиции, производство, цифровая экономика, экспорт, импорт, экономическое развитие.

Аннотация: Обрабатывающая промышленность играет значительную роль в экономическом развитии страны. Развитие обрабатывающей промышленности обеспечит постоянную занятость населения региона. Кроме того, за счет привлечения инвестиций производственные предприятия получают возможность модернизировать имеющиеся технологии и тем самым дополнительно повысить эффективность производства.

Kirish: Globalashuv davrida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ishlab chiqarish sanoatining ahamiyati yuqori. Ma'lumki, Sanoat korxonalarining rivojlanishi shu korxona tarkibida mavjud sohalarni faollik bilan rivojlanishiga bog'liq, shu bilan birga ularga jalb qilingan investitsiyalar va ulardan foydalanish ko'lamiga ham bog'liq. Bugungi kunda O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish bo'yicha yetarlicha siyosat olib borilmoqda. "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida sanoat zonalari tashkil etilmoqda.

Xususan, chet ellik investorlar uchun qulay shart – sharoitlar yaratilmoqda. Misol uchun, "Angren", "Navoi" va "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalarini orqali ko'plab yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda¹.

Asosiy qism: Hududa sanoat korxonalarining samarali faoliyati nafaqat ishlab chiqarish sanoatini barqaror rivojlanishini balki jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotni ham yuksaltiradi. Xususan, hududa istiqomat qiluvchi aholining turmush darajasi yaxshilashda ishlab chiqarish sanoatining ahamiyati yuqori. Ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi mamlakat miqyosida eksport va import qilinadigan tovarlarni o'zaro balansini ushlab uchun ham ahamiyatli. Shunday ekan viloyat miqyosida ham ishlab chiqarish sanoat sohalariga e'tibor yildan yilga oshib bormoqda. Misol uchun ishlab chiqarish sanoatiga investitsiyalar joriy etish ko'lamini oxirgi yillarda yaxshilangan. (1 – rasmga qarang)



2.2.1-Rasm. Andijon viloyati asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalardan ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi².

Yuqoridagi ma'lumotlarda oxirgi yillarda Andijon viloyatida ishlab chiqarish sanoatiga qanchalik shart – sharoit yaratib berilayotganini va investitsiyalar ko'lamini o'zgarishi aks etirilgan.

Xususan, 2014 – yilda, asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalarning 18,5 foizi aynan ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgan bo'lsa 2017 – yilda bu ko'rsatkich 26,1 foizni tashkil qilgan, 2020-yilga kelib 36,5 foizni tashkil qilgan, 2022-yilda 48,3 foiz bo'lgan, 2024 – yilga kelib jami asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalarga nisbatan 52,3 foizni tashkil etgan.

Xususan, viloyatga jalb qilingan investitsiyalardan foydalanish orqali YaHM bilan bir qatorda infratuzlimalar hamda axborot xizmatlari ham rivojlandi. Hozirgi iqtisodiy taraqqiyot davri bevosita axborotlashgan davr hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sanoatining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, jahon bozorida yuqori raqobatbardosh bo'lgan ishlab

¹ <https://lex.uz/docs/-5841063>

² <https://andstat.uz/uz/ma'lumotlari> asosida muallif ishlanmasi

chiqarishlarni manzilli qo'llab-quvvatlanishi, ishlab chiqarishlar tarkibida qayta ishlash sanoatining ulushini oshishiga ko'maklashdi.

Shuningdek, axborot davrida ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish kelgusida sanoat tarmoqlarini yanada tez va sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, sanoati rivojlangan mamlakatlarning aksariyati ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanadi. Hududga jalb qilingan investitsiyalardan unumli foydalanish hamda ularning samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish zarur. Sanoat korxonalari uchun yangi texnologiyalardan foydalanishni ko'lamini yanada rivojlantirish zarur. Ishlab chiqarish sanoat korxonalariga jalb qilingan investitsiyalar yordamida korxonada mavjud moddiy texnika zahiralarini yangilash imkoniyati ortadi. Bu esa o'z navbatida korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu nafaqat ishlab chiqarish ko'lamini yaxshilaydi hamda korxonaning diversifikatsiya jarayonini ham tezlashtiradi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirish va hajmini oshirish o'z navbatida korxonaning qo'shimcha uskunalarga va xom ashyo, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini ortiradi. Korxonaga investitsiyalar jalb qilish esa bu kabi muamolarni bartaraf etishda yordam beradi.

Ma'lumki, bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida doimiy raqobat muhiti shakillangan. Investitsiyalardan muntazam samarali foydalanishni yo'lga qo'ygan korxonalar ichki va tashqi bozorda mavjud raqobat muhitida yutib chiqish ehtimoli oshadi.

Hozirgi globalashuv davrida ko'plab mamlakatlarning eng katta muomosi bu ishsizlik darajasini ortishi hisoblanadi. Ishsizlik darajasini oldini olish uchun avvalo hududa mavjud aholini ilmiy salohiyat darajasini yaxshilash zarur hamda hududga investitsiyalar jalb etish orqali mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning sonini oshirish kerak.

Investitsiyalardan unumli foydalanish hamda ulardan foydalanish ko'lamini yanada oshirish uchun davlat tomonidan ham imtiyozlar yaratib berilishi zarur.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4996- son Farmoni.31.03.2017.
2. G'ozibekov D.Ye. "Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari". T.: "Moliya", 2003. – 330 b.
3. To'xtamurotov Axmadali. (2024). SANOAT KORXONALARIDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. Scientific and technical journal namangan institute of engineering and technology 962-968.
4. Irisov, J. (2025). INNOVATIVE MANAGEMENT OF ENTERPRISES-A REQUIREMENT OF THE NEW ERA. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 183-188.